

**IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA TAQDIR SINOVLARIDA
SINALGAN SABR-TOQAT YOXUD BONUNING BOSHIDAN
KECHIRGANLARI**

Mahliyo Xudoyberdiyeva Ilhomjonovna

Buxoro davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish fakulteti:
o‘zbek tili yo‘nalishi 6.1 uzb 21-guruhi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek qizi - Bonuning boshidan ko‘rgan-kechirganlari, taqdir sinovlarida sinalgan sabr-bardoshi, metin irodasining bugungi zamon kishisining har biriga o‘rnak bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Taqdir, obraz, telegramma, suyanchiq tog‘, qiyinchiliklar, sof muhabbat, matonat.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega ijodkorlarimizidan biri ustoz-Iqbol Mirzo ijodi sermahsul. Uning she’rlari o‘ziga xos nozik tuyg‘ular, milliy bo‘yoqlar, o‘zbekona ohang va falsafa bilan yo‘g‘rilgan. Ham nasrda, ham nazmda barakali va betakror ijod na’munalari bilan kitobxonlar e’tiborini qozongan. Ayniqsa, 2016-yilda yozib tugatilgan "Bonu" romani hayotiy voqealarga asoslanganligi va uslubning ravonligi bilan kitobxonlar mehrini qozongan. Undan keyin yaratgan Samarqand sayqali“ (2016), „Alisherbek va Husayn“ (2021), „Usmon Nosir“ (2022) pyesalari sahnalashtirilgan. Asarlari rus, tojik, turkman tillarida nashrdan chiqqan. O‘zbek adabiyotida ayol obrazi bosh qahramon sifatida gavdalantirilgan asarlar bir qancha bo‘lib, Zulfiya Qurolboy qizi ham bu mavzuda samarali ijod qilib kelmoqda. Ayol obrazini ochib berish mushkul. Chunki ayollarning ichki olami, fikr-o‘ylarini to‘liq ko‘rsatib berish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Iqbol Mirzo "Bonu" romanini yaratishda o‘ziga xos qochirimlardan, o‘xshatishlardan, to‘rtliklar-u

g‘azallardan parcha qo‘llaydi. Voqealar rivoji ham bir tekisda ketmaydi. Tugun va yechim mahorat bilan ifodalanadiki, bu kitobxonni asar mutolaasiga diqqat bilan berilishni ta’minlaydi. Abdulla Qodiriy ham "O‘tkan kunlar" romanini yozishda shu uslubdan foydalangan. Epistolyar uslubda yaratilgan ushbu romanda Bonu ismli qiz asar markazida turadi. Yozuvchi shu birligining qizning taqdiri misolida butun jamiyatdagi ko‘plab insonlarning ravish-raftorini bor bo‘yi bilan ko‘rsatib beradi. Asarga aynan Bonu deya nom qo‘yilishidan sabab, buxorolik bir Bonu ismli qizning boshidan ko‘rgan-kechirganlarini telegramma orqali jo‘natgan maktublari asosida yaratilganligi uchundir. Bonu so‘zining ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Bonu (unvon) — 1) yuqori tabaqaga, aslzodalarga mansub bo‘lgan ayollar unvoni, xonim; 2) forstojik tillarida gaplashadigan xalqlar hamda turkiy xalqlarda ayollar ismiga hurmat yuzasidan qo‘shib ishlatiladigan so‘z¹ degan ma’nolarni anglatadi. Asar voqealari to‘rtinchi avgust kuni Bonuning yozuvchiga kechki telegrammani jo‘natishi bilan boshlanadi. Hali yosh bo‘lsada hayot "qozonida qaynab", turfa xil sinovlar-u musibatlarni boshidan kechirgan bir jabrdiyda- Bonu maslahat so‘rab yozuvchiga telegramdan murojaat qiladi. Negadir shu kitobni o‘qisam Abdulla Oripovning ushbu misralari xayolimda gavdalanaveradi:

Sahro so‘qmog‘ida boshin egib jim

Bir kimsa ketmoqda, bilmasman, u kim?²... Armon toshdek zil bo‘lgani uchun ham dil tubiga cho‘kadi deydilar...Toshlari tog‘dek qalashib ketgan yurakni nima deb atash mumkin? Toshyurak deymizmi ? Inson shu tariqa bag‘ritoshga aylanadimi?³ Bonuning tarbiyasida Mir Arab madarasasi tuprog‘ini o‘n yil yalab, ilmi komil bo‘lgan bo‘lgan ma’rifatli mo‘min inson-bobosining o‘rni bo‘lakcha edi. Bobosining ta’siri ostida yoshligidanoq Allohning kalomini va hadisi sharifni tinglab, goho Xo‘jamnazar Huvaydo g‘azalarini o‘qib, yodlab ularning sehr-u jozibasidan bahramand bo‘lib ulg‘ayadi. "Muhabbatdan muhabbat bo‘ldi paydo"¹ deganday, Bonuning bola chog‘idanoq qalbida kitobga muhabbat uyg‘onadi. Hayotining asosiy mazmuni mutolaa bo‘lgan sofdir qizning hayotini qayg‘u bulutlari qoplaydi. Avval

¹ Lutfiy

bobosidan, keyin dadasidan ayrıladı. G‘am kelsa qo‘sha-qo‘sha deganlariday go‘zal Bonu pes kasaliga chalinadi. Inson bolasi eng og‘ir damlarida sevikli insonlariga suyanadi. Biroq Bonuning suyanchiq tog‘i qulab tushadi, sevgilisi Olmos uni tashlab ketadi. Opalarining undan o‘zini olib qochishi, yakka-yu yagona akasi Mirxon ham yangasining gapiga kirib u bilan tortishib qolishi, oliygohda talabalarning turli xil gap-so‘zları, jirkanib qarashlari unga katta ruhiy zarba yetkazadi. Bu darddan qutulish uchun har bir "maslahatgo‘y" bergen maslahatlarga amal qilib ko‘radi, qilmagan ishi, tutmagan yo‘rig‘i qolmaydi. Nachora, Allohdan kelganiga bo‘ysunmasdan ojiz bandasining na iloji bor deb taqdirga ko‘nishga majbur bo‘ladi. O‘zi bitirgan maktabda o‘qituvchilik qiladi. Har bir zamonda ham adolatparvar hech kimga yoqmaganidek, bu yerda ham uzoq ishlay olmay ishni tashlab ketadi. Bonu qishlog‘iga sig‘may qoladi. Cho‘lpon ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, "Ko‘ngil boshqa narsa-yangilik qidiradir" deya Bonu ham Moskvaga tog‘asining yoniga ishlashga ketadi. Onasining "ishonchli" deya yoniga yuborgan tog‘asining ko‘rsatgan noma‘qulchiliklaridan hafsalasi pir bo‘lgan Bonu u yerdan bosh olib chiqib ketadi. Moskvadalik paytida ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi, ammo har qanday holatda ham iymonini, iffatini yo‘qotmaydi. Dilbarxon "osongina" pul topishga chorlaganda yonida bir tiyini qolmagan bo‘lsa-da, ayollik sha’nining toptalishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu hozirgi kunda noto‘g‘ri yo‘llarga kirib ketayotgan ba’zi qizlarimizga ibratdir. Bonuning tabiatan mehribon, kuyunchak ekanligini maktabda ijtimoiy ahvoli og‘ir bo‘lgan o‘quvchilariga ust-bosh tarqatish jarayonida, yoki bo‘lmasa lo‘lilarning uyida xizmat qilayotganida garchand ular unga nisbatan yaxshi muomalada bo‘lishmayotganda ham Larisaning qizchalarini o‘z hayatini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa-da, qutqarib qoladi. To‘g‘ri, Bonuni farishta deb ham aytolmaymiz, chunki yangi yil kechasi to‘yguncha ichadi. Garchi bu dadasining bergen pand-nasihatlariga xilof bo‘lsada, beixtiyor qiyinchiliklardan zada bo‘lgan ko‘nglini yayratish uchun qiladi va bu qilgan ishi xato bo‘lganligidan xulosa ham chiqaradi. Dunyo faqat qora bo‘yoqlardan iborat bo‘limganidek, Bonuga doimo qo‘lidan kelgan yordamini ayamagan Shoira opa, Ikromiddin aka, Alisher, voldasi uni qo‘llab-quvvatlab

turishadi. Asarda chin muhabbatni anglash va qadrlash tuyg‘usini hamma ham angolmasligi, ayrim insonlarga muhabbat hafy ekanligini Olmosning razil qilmishlari timsolida ko‘ramiz. U Bonuning soddaligidan, sof muhabbatidan foydalanib, "fermer", "tabib", "kasal" ko‘rinishlariga kirib, uning pullarini shiladi. Qilmishlari oshkor bo‘lgach, zarracha uyalmaydi ham. Bonu uchun judayam qadrli bo‘lgan shu bilan birga, faqatgina unga tegishli bo‘lgan tilla tangalarni ishlatganda akasi ham hecham istihola qilmaydi. Hayhot!.. Bu qanday zamon? Bunday erkaklarda g‘urur degan tushuncha bormikan degan savol qiynaydi. Bu holatlarda Bonu shunchaki hech narsa qilmaydi ham, demaydi ham. Bu esa odamdan ulkan Matonat talab qiladi! Asar ...faqat bitta dog‘ qolgandir...yuragimda⁴... degan jumlalar bilan yakunlanadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, insonning insonligi nimada ekanligi, mohiyat-mazmuni nima ekanligini Bonu obrazi orqali ko‘ramiz. Bonu kabi taqdir sinovlari oldida dovdirab qolmasdan, yaratganning har bir imtihonida sabr-matonat bilan tura bilish ham hammaning qo‘lidan kelavermaydi. Zero, Alloh sabr qilguvchilarni suyadi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati." O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 1-jild. Toshkent." 312-bet
2. Abdulla Oripov. Yillar armoni. Toshkent., "Adabiyot va san’at" 1987.156-bet.
3. Iqbol Mirzo. Bonu. Toshkent., "Sharq" 2020.6-bet
- 4.. Iqbol Mirzo. Bonu. Toshkent., "Sharq" 2020.358-bet